

Abdullayev Aminboy Gulmirzayevich
Urganch davlat Universiteti Geografiya kafedراس dotsenti, (PhD)
O`zbekiston

Ollaberganova Saida Sherboy qizi
Urganch davlat Universiteti Geografiya kafedراس tadqiqotchisi
O`zbekiston

Abdullaev Aminboy Gulmirzaevich
(PhD), Associate Professor, Department of Geography, Urgench State
University,
Uzbekistan

Ollaberganova Saida Sherboevna
Researcher, Department of Geography, Urgench State University
Uzbekistan

GEGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIK O`YINLARNI QO`LLASHNI AFZALLIKLARI

Annotatsiya: Geografiya darslarida o`quvchilarning dars mavzusini yaxshi tushunishiga va o`rganilayotgan obyekt, jarayon yoki voqea hodisa haqida tasavvurning shakllanishiga shu bilan birga dars sifatining oshishiga yordam beruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan geografik o`yinlardan foydalanish masalalari o`rganilgan.

Kalit so`zlar: Geografiya, metodlar, geografik o`yinlar, svetofor o`yini, xarita, kartchalar (qizil, sariq, yashil).

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ИГР НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ

Аннотация: На уроках географии рассматриваются вопросы использования географических игр из современных педагогических технологий, которые помогают учащимся хорошо понять предмет урока и сформировать представление об изучаемом объекте, процессе или событии и одновременно повысить качество обучения. урок, изучаются.

Ключевые слова: География, методика, географические игры, игра «Светофор», карта, карточки (красная, желтая, зеленая).

ADVANTAGES OF USING GEOGRAPHIC GAMES IN GEOGRAPHY LESSONS

Abstract: Geography lessons examine the use of geographic games from modern pedagogical technologies that help students to understand the subject of the lesson well and form an idea of the studied object, process or event and at the same time improve the quality of learning. lesson, are studied.

Key words: Geography, methodology, geographic games, game "Traffic light", map, cards (red, yellow, green).

Kirish. Hozirgi XXI asr texnika texnologiyalar asrida ta'lim tizimini takomillashtirishga xususan geografiya ta'limini isloh qilishga yanada rivojlantirishga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Buning uchun geografiya o'qituvchisi avvalo o'zi o'qitayotgan fanni sevishi va bu fan erishayotgan yutuqlar bilan uzluksiz tanishib borishi shart.

Ishning maqsadi va vazifalari. Geografiya darslarini va geografiyadan sinfdan tashqari ishlarni hayotga tadbiq etish, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish – bosh maqsaddir.

Asosiy qism. Geografiya – asosan tabiiy sanaladi. Yer deb atalmish hayot maydoniga aylangan borliqni o'rganuvchi fan bo'lib, bu fanni o'rganishga har bir davr ziyolilari o'z qarashlari bilan yondashganlari aniq. Geografiya darslarini va sinfdan tashqari ishlarni hayotga tadbiq etish, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh masaladir. Darsda o'yinlardan geografik o'yinlardan foydalanish muhim o'rin egallaydi. Shu o'rinda geografik o'yinlarni darslarga olib kirish ko'zlangan maqsadga erishishda benihoyat katta yordam beradi. Geografik o'yinlar turli tuman bo'lib xar bir mavzuga mos keluvchi texnologiyalar metodlar orqali geografik o'yinlardan foydalanish yosh avlodni darslardagi charchoqlarini unitib yanada faolroq bo'lishlariga, ularni qiziqishlarini yanada oshirishga katta yordam beradi.

Ma'lum mavzuni o'rganish vaqtida o'qituvchi u bo'yicha tezislarni tayyorlaydi (5-7 ta, mavzuning murakkabligiga qarab). Tezislar navbatma-navbat

doskaga yoziladi (tasviri tushiriladi yoki oldindan tayyorlangan plakatlar shaklida ilib qo'yiladi). O'quvchilarga o'ylab chiqish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. So'ng tezis bilan rozi bo'lgan har bir o'quvchi yashil kartochkani ko'taradi, rozi bo'lmagan – qizil kartochkani, ikkilanayotgan yoki qaror qabul qilishda betaraf bo'lishni xohlayotgan – sariq kartochkani yuqoriga ko'taradi.

Agar ishtirokchilar fikri asosan bir-biriga mos keladigan bo'lsa, o'qituvchi navbatdagi tezisga o'tadi. Agar tezis muhokama qilinishni talab qilsa, ishtirokchilardan o'z qarorlarini asoslab berish iltimos qilinadi.

Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda, topshiriqlar ma'lum o'quv mavzusiga va ma'lum yoshdagi o'quvchilar guruhiga moslashtirilgandan keyin. Geografik o'yinlar qaysi turda bo'lmasin o'quvchini mustaqil fikrlashga, aqlini peshlashga o'rgatadi. O'yin turlarining qaysinisini qay vaqtda qo'llash xususida qat'iy ko'rsatma berib bo'lmaydi, chunki geografik o'yinlar har bir darsda mavzuni mazmuniga qarab tashkil etiladi.

Ushbu mashq barcha o'quvchilarning fikrini bilib olishga imkon beradi: hech kim oddiygina tomoshabin bo'lib qolmaydi. Ishtirokchilarning ko'pchiligida mashq boshlanganidan keyin birozdan so'ng nuqtai nazardagi tafovutlar sabablarini bilish va o'z fikrini asoslash bo'yicha kuchli qiziqish paydo bo'ladi. O'quvchilarning nutqini, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, asoslash qobiliyatini rivojlantiradi.

8-sinf O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiya darsligining "Tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati" mavzusi asosida Svetafor o'yining tadbiqu:

- Bunda to'g'ri bo'lgan xar bir jumlagacha o'quvchilar yashil rangli kartochka noto'g'ri bo'lgan jumlagacha qizil rangli kartochkalar bilmagan jumlagacha sariq rangli kartochkalar orqali javob berishlari kerak bo'ladi.
- Cho'l zonasida yog'ingarchilik 2000 mm bo'ladi.
- - O'zbekistonda 400 m dan 800 m balandlikkacha sug'orma dehqonchilik qilinadigan hududlar hisoblanadi.

- -O'zbekistonning 1200 m balandlikdagi tog'li xududlarida lalmikor yerlar tarqalgan.
- -Cho'lda zonasi 400 m balandlikkacha ko'tarilishi mumkin.
- -Bitta qo'yni boqish uchun 2-3 gektar o'tloq talab etiladi.
- -Cho'llarning samarasi xar obikor yerlar hisobidan 100 marta kam.
- -Respublikamizning dengiz sathidan 400-1200 m balandlikkacha bo'lgan qismlari adir mintaqasi deyiladi.
- -Cho'lni o'zlashtirish ekologik halokatlarga olib keladi.
- -Adir mintaqasida cho'l mintaqasiga qaraganda o'simlik turlari ko'p hisoblanadi.
- -O'lkamiz cho'llarida kaltakesakning faqat cho'l agamasi va qizilquloq kaltakesagini uchratish mumkin.
- Tog'larda yoz nisbatan uzoq va yog'ingarchilik bo'lmaydi.
- -Qishda cho'lda havo harorati 60 darajagacha sovuq bo'lib, qor yog'adi.
- Qiyinchiliklari

Agar vaqt cheklovlari sababli munozara o'tkazishga imkon bo'lmasa, ushbu uslubdan foydalanish kerak emas. Agar tezislarning ko'pchiligi bo'yicha ishtirokchilar fikri bir-biriga mos kelsa, mashqqa bo'lgan qiziqish tezda yo'qoladi.

Xulosa. Geografiya darslarini hayotga bog'lab, turli xil metodlar geografik o'yinlar orqali mustahkamlab qiziqarli qilib tashkil etilsa ana shundagina dars mavzulari har bir saboq oluvchilar ongiga chuqurroq singadi. Yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrli, ilmi, ma'naviy yetuk, Vatanimizning yanada gullab, yashnashi uchun o'z bilim va kuchini ayamaydigan qilib tarbiyalash biz o'qituvchilarga katta mashaqat va mas'uliyat yuklaydi.

Hozirda zamonda o'z dolzarbligini yo'qotmagan pedagogik an'analarga yangicha qarash, to'plangan tajribani ijobiy va salbiy tomonlari bilan qayta ko'rib chiqish davr talabi hisoblanadi. Bugungi kun talabi darslarni Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, noan'anaviy interfaol usullar yordamida tashkil etish, geografik o'yinlardam foydalangan holda yoshlarni ilm olishga qiziqtirish,

shuningdek darslarda geografik o'yinlarni qo'llash orqali o'quvchilar ta'lim olish samaradorligini oshirishga va ularni yanada qiziqtirishga harakat qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hayitov A.T.,Boymurodov N. Ta'limda hoan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. -T.: Yangi asr avlodi. 2006. - 76 b.
2. Qurbanniyozov R., Niyozov P. Geografik o'yinlar Toshkent "O'qituvchi"- 1990 y.85- 92 b.
3. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot.-Toshkent., 2013.-226 b.
4. Qurbanniyozov R. "Geografiya o'qitish metodikasi" Urganch-2001-y. 180-185 b.
5. O'. X. Muxammedov, M. X. Usmanboevna, S. S. Rustamov "Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar " Toshkent 2016 y. 47-b.